



“SUDLANGANLIK HOLATINING JINOIY-HUQUQIY OQIBATLARI”

Bahodirov Domullojon Baxtiyorzoda

M.S.Vosiqova nomidagi yuridik litsey

“Huquqiy fanlar” kafedrasi bosh o‘qituvchisi

Telefon: +998(90)837-71-70 bakhodirovdadakhon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18544361>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-fevral 2026 yil
Ma’qullandi: 07-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 09-fevral 2026 yil

KEYWORDS

*sudlanganlik, olib tashlash,
tugashi, jinoiy javobgarlik,
retsdiv, jazodan ozod qilish.*

ABSTRACT

Quydagi maqolada jinoyat huquqining eng muhim institutlaridan biri sifatida sudlanganlik to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, bunda sudlanganlik tushunchasi, uning huquqiy ahamiyati, sudlanganlikni olib tashlash va sudlanganlik holatini tugallanishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Sudlanganlik holati bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlarning fikr va mulohazalari ham o‘rganildi. Shuningdek, Oliy sud plenum qarorlari asosida sudlanganlik holati to‘g‘risida qonunchilikda mavjud bo‘lgan ayrim bo‘shliqlar va ziddiyatlar tahlil etilib, huquq normalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Asosiy qism: Shaxs jinoyat qonunchiligi bilan ta’qiqlangan qilmishgsodir qilishi bilan u va davlat o’rtasida ma’lum bir tarzda jinoyat-huquqiy munosabatlar paydo bo’ladi. Bunday huquqiy munosabatlar jinoyat yuzasidan surishtiruv ishlari va tergov ishlari olib borish, ishni sudda ko’rib jinoiy jazo tayinlash, jazoni ijro etish va jazoning ijro etilishini nazorat qilishdan iboratdir. Shaxs jazoni o’tab bo’lishi bilan jinoyat huquqiy munosabatlar tamom bo’lmasdan, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlar mobaynida ham huquqiy oqibatlar mavjud bo’lib, shu muddat ichida shaxs yangi jinoyat sodir qilsa, jinoyat huquqida nazarda tutilgan bir qator huquqiy oqibatlar kelib chiqadi.

O‘zR JKning 77-moddasida belgilanganiga ko‘ra jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan deb hisoblanadi. Demak, qonun mazmuniga ko‘ra, shaxsni sudlangan deb hisoblash uchun al-batta muayyan turdagi jazoga hukm qilingan va hukm qonu-niy kuchga kirgan bo’lishi kerak. Hukm chiqqan, lekin hukm hali qonuniy kuchga kirmagan vaqt sudlanganlik vaqti hisoblanadimi yoki yo’qmi? Agarda, O‘zR JKning 77-mod-dasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan qoidaga asosla-nilsa shaxs hali sudlangan hisoblanmaydi. Ammo aynan ana shu hukm chiqqan va ushbu hukm qonuniy kuchga kirgun-cha bo’lgan vaqt ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar shundan iboratki, shaxs ana shu vaqt ichida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, residiv jinoyat hisoblash kerakmi yoki jinoyatlar jami yoki takroran jinoyat sodir etish deb hisoblash kerakmi degan haqli savol tug’iladi. Haqiqatdan ham shaxsning sudlangan deb hisoblash masalasini hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab hisobga olish qonunda to’g’ri belgilangan.¹ Chunki hukm qonuniy kuchga kirguncha bo’lgan vaqt oralig’ida, ish yuqori instansiya tartibida ko’rilib, hukm o’zgartirilishi, shaxsga

¹ M.Usmonaliev Sudlanganlik uning huquqiy okibatlari va liberallashtirish muammolari. O‘quv qo‘llanma, T.: Yangi asr avlodi 2005. (M. Usmanaliev. Criminal record, its legal consequences and problems of liberalization. Textbook, T.: Yangi asr avlodi 2005.)

nisbatan javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish qo'lla-nishi mumkin. Bunday holatlarning barchasi shaxsni sudlanmagan deb hisoblashga asos bo'ladi.

Adabiyotlarda, umuman olganda jinoyat qonunchilik hujjatlarida ham "sudlanganlik" to'g'risida aniq bo'lgan ta'rif keltirib o'tilmagan. Masalan, JKda ham faqatgina sudlanganlikning jinoyat uchun hukm etilganidan keyin kelib chiquvchi huquqiy holatligi to'g'risida yozib qo'yilgan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan sudlanganlik to'g'risida quydagicha ta'rif berib o'tilgan: "Sudlanganlik bu shaxsning sodir etilgan jinoyati uchun sud tomonidan aybdor deb topilganda yuzaga keladigan huquqiy holat bo'lib, agar shaxs tomonidan jazo o'tab bo'lingandan keyin qaytadan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan taqdirda, belgilangan o'ziga xos bo'lgan huquqiy oqibatlar keltirib chiqadigan va o'g'irroq turdagi jinoiy javobgarlik choralari qo'llashda ifodalanadigan maxsus ommaviy huquqiy munosabatlardir"².

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan asos haqiqatda to'g'ri talqin qilish deyish mumkin, chunki sudlanganlik o'zida jinoiy qilmish yakunlangan va jazo o'tab bo'lgandan keyin, muayyan vaqt davomida oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatdir.

Quyida sudlanganlik shaxsning huquqiy holatiga qanday ta'sir qilishi to'g'risida to'xtalib o'tamiz:

Birinchidan, Jinoyat kodeksining 34-moddasiga ko'ra, shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsdiv jinoyat deb topiladi. Jinoyat kodeksining 56-moddasiga asosan, retsdiv jinoyat jazoni o'g'irlashtiruvchi holat sifatida qayd etilgan. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinmi, sudlanganlik holati tugallanmasdan turib yana jinoyat sodir etish shaxsga nisbatan jiddiyroq jazo chorasini qo'llanilishiga sabab bo'ladi (sudlanmagan shaxs tomonidan sodir etilsa, jazo tayinlashda bu hisobga olinuvchi mezon sifatida baholanadi).

Ikkinchidan, ozodlik mahrum etilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasa turini tayinlashda hisobga olinadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 50-moddasi 7-qism "a-v" bandiga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda hamda ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib yoki o'tayotgan chog'ida, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'tashi belgilab qo'yilgan. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, sudlanganlik holatida jinoyat sodir etish, o'g'ir tartibli koloniyada jazoni o'tashga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, Jinoyat kodeksining 50-moddasiga asosan, ilgari sodir etilgan jinoyati uchun jazo o'tayotgan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilgan hollarda, hukmlar majmui bo'yicha jazo belgilashda sudlanganlik qattiqroq qoidalar qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, sudlanganlik holatining mavjud bo'lishi, ayrim asoslarga ko'ra javobgarlik va jazodan ozod qilishda to'sqinlik qilishi mumkin. Masalan, JK 66-moddasida, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish uchun shaxs ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo'lishi kerakligi, 66¹-moddasi asosida yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmasligi, JK 66-moddasiga binoan, shartli hukm o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganlarga, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun

² Постановление Конституционного Суда РФ от 19.03.2003 N 3-П "По делу о проверке конституционности положений Уголовного кодекса Российской Федерации, регламентирующих правовые последствия судимости лица, неоднократно и рецидива преступлений, а также пунктов 1 - 8 Постановления Государственной Думы от 26 мая 2000 года "Об объявлении амнистии в связи с 55-летием Победы в Великой Отечественной войне 1941 - 1945 годов" в связи с запросом Останкинского межмуниципального (районного) суда города Москвы и жалобами ряда граждан"// "Собрание законодательства РФ", 07.04.2003, N 14, ст. 1302.

ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilinmasligi, shuningdek jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish hamda jazoni yengilroq jazoga almashtirib bo'linmasligi keltirib o'tilgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan holat shaxsning sudlanganlik holatini huquqiy jihatlari nuqtayi nazaridan bayon etilgani hisoblanadi.

Sudlanganlik holati qonunchilikda belgilangan tartibda, jazo o'tab bo'lingandan keyin muayyan vaqt o'tgandan keyin yoki sud tartibida olib tashlanishi mumkin. Masalan, Shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi. Masalan, shartli hukm qilinganlarga nisbatan — sinov muddati tugagan kundan boshlab, majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach, jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin bir yil, ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin — ikki yil o'tgach, besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — to'rt yil o'tgach, besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — yetti yil o'tgach, o'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — o'n yil o'tgach avtomatik ravishda shaxs sudlanmagan hisoblanadi³. Agar shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab bo'lganidan keyin unga nisbatan ma'muriy jazo yoki intizomiy ta'sir choralari qo'llanilmagan bo'lsa, jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, jamoa yoki jazoni o'tab chiqqan shaxsning o'zi bergan iltimosnomasiga ko'ra sud ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida yarmi o'tganidan keyin va Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarning sudlanganligi ular davlatga juda ko'p zarar yetkazmaganda $\frac{1}{4}$ qismi o'tab bo'lingandan keyin olib tashlash mumkin.

Amaldagi Jinoyat kodeksining 50 va 77-moddalarida belgilanishicha JKning 78-moddasida ko'rsatilgan muddatlar o'tib ketgan bo'lsa, shaxs yangi jinoyat sodir qilgan taqdirda ham biron-bir jinoyat huquqiy oqibatlari kelib chiqmaydi va shaxs yangi jinoyat sodir qilsa umu-miy tartibda javobgarlikka tortiladi. Oldin muayyan qilmish jinoyat hisoblanib muayyan turdagi jazoga hukm qilingan va jazoni o'tagan, ammo qonun-ning o'zgarishi bilan bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmaydigan taqdirda, shaxs sudlanmagan hisoblanadi va yangi jinoyat sodir qilgan taqdirda, javobgarlik masa-lasi umumiy tartibda hal qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, sudlanganlik holati shaxs biror bir ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda sud tomonidan aybdor deb e'lon qilinib, uning hukmi qonunin kuchga kirgandan keyin yuzaga keladigan huquqiy oqibat bo'lib, shaxsda jazo to'liq o'tab bo'lgandan keyin ham, ma'lum bir tarzda o'zining ta'sirini o'tkazadigan va bu vaqt oralig'ida (sudlanganlik olib tashlanmagan yoki tugallanmagan vaqtda) shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilgantaqdirda, ba'zi bir yengillashtiruvchi jinoiy-huquqiy normalarni qo'llashni inkor etuvchi holat sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. M.X. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent
4. Muhammadjon USMONALIEV. JINOYAT HUQUQI (Umumiy qism). Toshkent-2010 Yangi asr avlodi 168.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrdagi 13-sonli "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 4-bandining birinchi, ikkinchi, to'rtinchi xatboshilari

5. M.Usmonaliev Sudlanganlik uning huquqiy okibatlari va liberallashtirish muammolari. O'quv qo'llanma, T.: Yangi asr avlodi 2005. (M. Usmanaliev. Criminal record, its legal consequences and problems of liberalization. Textbook, T.: Yangi asr avlodi 2005.)
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2015-yil 18-sentabrdagi 13-sonli "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori
7. <https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/view/3593>

